

“TASDIQLAYMAN”
Xorazm viloyat statistika
boshqarmasi boshlig‘i b.v
X.Egamov
2022-yil « 05 » aprel

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022-yil yanvar-mart oylari davomida
“Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasini”ng ijrosi yuzasidan
HISOBOT

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
I. Aholining, shu jumladan statistika hisobotlarini topshiruvchi, statistika kuzatuvlarida ishtirok etuvchi sub’ektlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish		
1.	O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan Davlat dasturlari va boshqa qonun hujjatlarining mazmun mohiyatini tushuntirishga bag‘ishlangan tadbirlarni tashkil etish.	<p>Xorazm viloyati statistika boshqarmasi va tuman, (shahar) statistika bo‘limlari Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan 2018-yil fevral oyida taqdim etilgan “Davlat statistika sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish hamda statistik ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligini ta’minlash maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan samarali hamkorlik qilishini tashkil etish, ular uchun maksimal qulay shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha Ko‘rsatmalar” asosida, Tadbirkorlik sub’ektlari va davlat statistika organlari o‘rtasidagi qonunchilikda belgilangan munosabatlar bilan bog‘liq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari ijrosini ta’minlash, “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi qonun buzilishi holatlarini va boshqa huquqbuzarliklarning olidini olish, tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha tadbirkorlik sub’ektlari bilan seminar-uchrashuvlar tashkil etilmoqda.</p> <p>Shuningdek, boshqarma va tuman, (shahar) statistika bo‘limlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini xodimlar va tadbirkorlik sub’ektlariga tushuntirish hamda ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan xuquqbuzarliklarning oldini</p>

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
		<p>olish borasida har oyda tadbirkorlik sub'ektlari bilan seminarlar va "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazilib borilmoqda. Jumladan, 2022-yil yanvar-mart oylarida boshqarma tizimida 42 ta uchrashuvlar o'tkazilib, mazkur tadbirlarga 908 ta tadbirkorlik sub'ektlari va ularning vakillari jalb etildi. Shundan 205 ta tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan huquqbuzarliklarni oldi olindi va 1764 tasi bartaraf etildi;</p> <p>Shu bilan birga, boshqarma va tuman, (shahar) statistika bo'limlarida har qanday ko'rinishdagi korrupsiya holatlariga chek qo'yish, uning oldini olish bo'yicha ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida jamoatchilik tashkilotlari bilan aloqalar mustahkamlanib, tizim xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish yuzasidan ular o'rtasida doimiy ravishda seminarlar, davra suhbatlari va tushuntirish ishlarini belgilangan muddatlarda tashkil etib borilmoqda.</p> <p>Ushbu seminar yig'ilishlarida kichik biznes sub'ektlari tomonidan yillik 1-KV-shakli (yillik) davlat statistika hisobotida ko'plab kamchiliklar uchrayotganligi, ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish va statistik ma'lumotlarni qonunda belgilangan muddatlarda sifatli va o'z vaqtida qabul qilish statistika organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanishi ta'kidlab o'tildi hamda seminar uchrashuvlarda kichik biznes sub'ektlari tomonidan yillik 1-KV shakli (yillik) davlat statistika hisobotida uchraydigan xato va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tarmoq bo'limlarining malakali mutaxassislari tomonidan batafsil tushuntirishlar berildi. Bundan tashqari, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan har chorakda taqdim etiladigan 1-KV kuzatuv, 2-KV kuzatuv, 3-KV kuzatuv, 4-KV kuzatuvlar bo'yicha ham batafsil tushuntirishlar berildi.</p>
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan ko'rgazmali va tarqatma materiallar (plakatlar, bannerlar, bukletlar va boshqalar)ni tayyorlash va tarqatish.	Korrupsiya holatlarining oldini olish bo'yicha boshqarma tomonidan 3 ta buklet va plakatlar tayyorlangan, mazkur plakatlar boshqarma va tuman, (shahar) statistika bo'limlari joylashgan bino stendlariga osib qo'yilishi ta'minlangan hamda tayyorlangan bukletlar statistika organlari tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda va hisobot davrida tadbirkorlik sub'ektlariga tarqatilmoqda.
3.	Korrupsiyaning xavf-xatarlarini tahlil qilish asosida, aholining keng qatlamlarini xabardor qilish va	Korrupsiyaning xavf-xatarlarini tahlil qilish asosida, aholining keng qatlamlarini xabardor qilish va bilimlarini oshirishda maqsadli tadbirlarni

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
	bilimlarini oshirishda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish	2022-yilning 1,2,3,4-choragida ham o'tkazish belgilab olindi.
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalari bo'yicha ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ida keng axborot-targ'ibot ishlarini olib borish.	2022-yil 03-mart va 29-mart kunlari Xorazm viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" O'RQ-419-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirilishi bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6013-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 06-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamotchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6257-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 06-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5177-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash borasida boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman, (shahar) statistika bo'limlari mas'ul rahbar va xodimlari ishtirokida seminar yig'ilishi vebinar qilib o'tkazildi.
5.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat statistika organlari mansabdor shaxslari va xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish.	Shuningdek, 2022-yil 03-mart va 29-mart kunlari Xorazm viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiya a'zolari, boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman (shahar) statistika bo'limlari boshliqlari hamda tadbirkorlik sub'ektlari ishtirokida "Xorazm viloyati statistika boshqarmasining 2022-yil 06-yanvarda tasdiqlangan "Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi"da

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
		belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan seminar yig'ilishi vebenar qilib o'tkazildi.
6.	Davlat statistika organlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga rioya qilishlari, o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirish, yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarishda halollik, xolislik, beg'arazlik tamoyillariga rioya qilishlarini ta'minlashga hamda loqaydlik va boshqa salbiy holatlarga qat'iy chek qo'yish va ularning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2016-yil 2-martdagi 62-son qaroriga muvofiq Davlat statistika qo'mitasining 2016-yil 8-apreldagi 22-sonli buyrug'i asosida "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimi xodimlarining odob-axloq Qoidalari" bilan boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlarining barcha xodimlarini tanishtirish maqsadida boshqarmaning 2016-yil 11-apreldagi 17-F-sonli buyrug'i tasdiqlangan va boshqarmaning barcha tarmoq va tuman (shahar) statistika bo'limlari xodimlariga to'liq tanishtirilgan va ijrosi nazoratga olingan.</p> <p>Shuningdek, Kadrlar bo'limi tomonidan boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlariga yangidan ishga qabul qilinayotgan xodimlarni odob-axloq qoidalari bilan tanishtirib borilishi ta'minlanmoqda.</p> <p>Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari xodimlari o'rtasida odob-axloq qoidalari mazmun va mohiyatini yetkazish bo'yicha keng targ'ibot ishlari olib borildi:</p> <p>Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari rahbar va xodimlari tomonidan mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik, korrupsiya holatlarini oldini olish, amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash maqsadida, ularga normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va ahamiyatini chuqur yetkazish bo'yicha huquqiy bilimlar o'quv-seminar mashg'uloti o'tkazilmoqda.</p>
7.	Xorazm viloyati statistika boshqarmasining veb-saytida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyalarning faoliyati ochiqligini ta'minlash maqsadida ularning sahifalarini ochish va ularning samarali ishlashini ta'minlash.	Xorazm viloyat statistika boshqarmasining veb-saytida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyaning faoliyatini ochiqligini ta'minlash maqsadida, boshqarmaning www.xorazmstat.uz rasmiy saytida sahifa ochilib, Xorazm viloyat statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasining tarkibi va faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirilib borilmoqda. Shuningdek, boshqarmaning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiya

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
		sahifasida barcha ochiq ma'lumotlar Boshqarma rasmiy-veb saytining http://www.xorazmstat.uz/uz/press-sluzhba/boshqarma-yangiliklari/4726-iqtisodiyotning-muhim-omili manzilida hamda "Korrupsiya mamlakat ravnaqini barbod qiladi" ruknidagi http://www.xorazmstat.uz/uz bosh sahifasida joylashtirilgan va mazkur ma'lumotlar muntazam ravishda yangilanib borishi ta'minlanmoqda.
II. Davlat va jamiyat xayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar		
8.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy tizimlar samaradorligini oshirish, shu jumladan:</p> <p>xizmat vazifalarini bajarishda xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini lozim darajada tartibga solish, shuningdek, ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikni oshirish;</p> <p>davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy koordinatorlarning o'zaro hamkorligi;</p> <p>korrupsiyaga ko'proq moyil bo'lgan sohalar (yo'nalishlar)ni aniqlash;</p> <p>idoraviy chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.</p>	<p>Davlat statistika qo'mitasining ishlab chiqilgan idoraviy hujjatlari ishlab chiqilgandan so'ng, mazkur hujjat asosida boshqarmaning tegishli hujjatlarini ishlab chiqarilishi belgilab olingan.</p>
9.	<p>Davlat statistika organlarida korrupsiya xavfiga duchor bo'lgan soha va yo'nalishlarni aniqlash, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikning ta'sirchan choralarni ko'rish, ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni, shart-sharoitlarni yo'q qilish asosida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha zarur choralarni amalga oshirish.</p>	<p>Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tomonidan korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan yo'nalishlar aniqlanmadi.</p> <p>Boshqarma tomonidan korrupsiyaning oldini olish bo'yicha o'tkazilib kelinayotgan seminar yig'ilishlarda tizim xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tushuntirishlar berildi hamda ogohlantirildi.</p>
10.	<p>Davlat statistika qo'mitasi mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab va xizmat vazifalarini bajarish sifatini va samaradorlik</p>	<p>Davlat statistika qo'mitasi mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab va xizmat vazifalarini bajarish sifatini va samaradorlik mezonlarini baholash uchun boshqarma saytida so'rovnomalar</p>

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
	mezonlarini baholashni amalga oshirish.	belgilandi.
11.	Xodimlar o'rtasida huquqbuzarlik-larning oldini olish bo'yicha, shu jumladan ilg'or ilmiy-texnik vositalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish yo'li bilan idoraviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish.	<p>Boshqarmada jismoniy va yuridik shaxslarning davlat hokimiyati organlari faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanishini ta'minlash maqsadida, boshqarmaning rasmiy www.xorstat.uz veb saytida boshqarma faoliyatiga tegishli bo'lgan barcha ochiq ma'lumotlar joylashtirilgan hamda mazkur ma'lumotlar muntazam ravishda yangilanib borilishi ta'minlanmoqda.</p> <p>Shuningdek, boshqarmaning www.xorstat.uz rasmiy veb saytining http://xorstat.uz/page/view/mode/application-statistics manzilida jismoniy va yuridik shaxslardan boshqarmaga kelib tushgan murojaatlarning tahlili qo'yib borilishi ta'minlanmoqda.</p> <p>Xorazm viloyati statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning barchasi avtomatlashtirilgan elektron hujjat aylanishi stat.doc dasturiga kiritilib, mazkur dastur orqali murojaatlarning ijrosi o'z muddatlarida ta'minlanishi qat'iy nazoratga olingan.</p> <p>Shu bilan birga, boshqarmaning xorazmstat@umail.uz elektron pochta manzili hamda xorazm@exat.uz nomli axborot va ma'lumotlar almashinuvi dasturi ishga tushirilgan. Ushbu pochta manzili va dastur orqali murojaatlar soni yildan yilga ortib bormoqda.</p>
12.	Xodimlar o'rtasida odob-axloq qoidalari va talablarini tushuntirish, hamda ularga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora tadbirlarni ishlab chiqish va bajarish.	2022-yil 06-yanvar kuni Xorazm viloyat statistika boshqarmasi tizimida xodimlar o'rtasida odob-ahloq qoidalari, normalari va talablarini tushuntirish hamda odob-ahloq qoidalariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.
13.	Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tizimi xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga amal qilinishi monitoringini o'tkazish, ushbu sohada qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish borasida takliflar tayyorlash.	2022-yilning 1,2,3,4-choraklarda Xorazm viloyat statistika boshqarmasi xodimlari o'rtasida odob-axloq qoidalari, normalari va talablarini tushuntirish hamda odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash bo'yicha davra suhbatlari o'tkazildi.
14.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyixalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish (jumladan antikorrupsion ekspertizadan o'tkazish)	Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalari korrupsiyaviy normalarning, korrupsiyaviy holatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavflarning mavjud bo'lishini oldini olish maqsadida, ularni amaldagi qonun

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
		<p>hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha barcha choralar ko'rilmogda.</p> <p>Xususan, boshqarma tomonidan qabul qilinayotgan ichki buyruqlar doimiy ravishda boshqarma Yuridik xizmati va Xorazm viloyati prokuraturasi tomonidan ekspertizadan o'tkazilishi ta'minlanmogda.</p>
<p align="center">III. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek quyish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish</p>		
15.	<p>Davlat statistika organlari bilan jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlar sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishonch telefonlari va Call- markazlari ("tez aloqa liniyalari") ish samaradorligini ta'minlash.</p>	<p>Xorazm viloyat statistika boshqarmasi va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan Davlat statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan "Davlat statistika sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish hamda statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan samarali hamkorlik qilishini tashkil etish, ular uchun maksimal qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha Ko'rsatmalar" asosida, Tadbirkorlik sub'ektlari va davlat statistika organlari o'rtasidagi qonunchilikda belgilangan munosabatlar bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari ijrosini ta'minlash, "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonun buzilishi holatlarini va boshqa huquqbuzarliklarning olidini olish, tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlari bilan seminar-uchrashuvlar tashkil etilmogda. Tadbirkorlik sub'ektlariga, ular bilan davlat statistika organlari o'rtasida o'zaro munosabatlarda yuzaga kelgan va hal etilishi lozim bo'lgan muammoli masalalar hamda davlat statistika organlari faoliyatini, shu jumladan elektron shaklda hisobot taqdim etish tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflarni statistika organlarida tashkil etilgan "Ishonch telefon"lari orqali hamda "www.stat.uz" veb saytidagi murojaatlarni qabul qilish sahifasida joylashtirilgan virtual qabulxona orqali murojaatlarni yuborishlari, info@stat.uz pochta manziliga murojaat qilish mumkinligi hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari "my.gov.uz" portalida "davlat organi rahbariyati qabuliga yozilish" sahifasi orqali Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga onlayn tarzda yozilish mumkinligi, Internet tarmog'i orqali ko'rsatilayotgan davlat interaktiv xizmatlarining afzalliklari va qulayliklari to'g'risida tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida tushuntirishlarni targ'ibot ishlari orqali, o'tkaziladigan seminarlar,</p>

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
		<p>“Ochiq eshiklar kun”larida, tadbirkorlik sub’ektlarini qabul qilish davrida yetkazilishini tashkil etish, bu haqda ko’rgazmali stendlarda e’lonlar berib borish, ular uchun “Ochiq eshiklar kuni”ni tashkil etish, mavjud muammolari to’g’risidagi murojaatlarini hal etish maqsadida “Ishonch telefon”lari ishini faollashtirish hamda tadbirkorlik sub’ektlari bilan keng ko’lamli profilaktika ishlarini olib borish orqali ular faoliyatida sodir etilishi mumkin bo’lgan tartib buzish holatlarini oldini olish ta’minlanib kelinmoqda.</p> <p>Jumladan, tadbirkorlik sub’ektlarini qiziqtirgan savol va murojaatlariga malakali javob va maslahatlar berilishini ta’minlash, tumanlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarda yuzaga kelgan muammolarni tezkor ravishda hal etish orqali tushuntirish ishlarini yanada yaxshilash maqsadida, Xorazm viloyat statistika boshqarmasida “Ishonch telefoni” (tel:(62)24-65-26 tashkil etilgan.</p> <p>“Ishonch telefoni”ning uzluksiz ishlashi ta’minlangan, telefon orqali kelib tushgan muammolarni tezkor hal etish uchun malakali mutaxassislar jalb qilingan va har bir holat bo’yicha alohida nazorat o’rnatilgan.</p> <p>Boshqarmada tashkil etilgan “Ishonch telefonlari” orqali 2022-yil yanvar-mart oylarida murojaat kelib tushmagan.</p> <p>Shuningdek, boshqarmaning www.xorstat.uz rasmiy veb saytining manzilida jismoniy va yuridik shaxslardan boshqarmaga kelib tushgan murojaatlarning tahlili qo’yib borilishi ta’minlanmoqda.</p> <p>Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo’limlari tomonidan tadbirkorlik sub’ektlari bilan olib borilayotgan profilaktika ishlari, “Ishonch telefonlari” orqali kelib tushayotgan murojaatlar, jismoniy va yuridik shaxslardan boshqarmaga kelib tushgan murojaatlarning tahlillari natijalari boshqarma Kengash yig’ilishlarida, Idoraviy komissiya yig’ilishlarida muhokama etib borilmoqda.</p>
16.	Xorazm viloyati statistika boshqarmasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlar bilan ishlash samaradorligini monitoring qilish.	Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tizimi xodimlari o’rtasida ijro intizomini mustahkamlash yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar monitoringi yakunlari to’g’risida har oyda 2-marotaba “Xorazm viloyati statistika boshqarmasi hamda tuman (shahar) bo’limlari bilan birgalikda Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tizimida ish yuritish va hujjatlar bilan

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
		<p>ishlashda ijro intizomini mustahkamlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar monitoringi natijalari mavzusi”da yig‘ilishi o‘tkazildi.</p> <p>Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslardan boshqarmaga kelib tushgan murojaatlarning tahlil natijalari Idoraviy komissiya yig‘ilishlarida muhokama etib borilmoqda.</p>
17.	<p>Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi tomonidan o‘tkaziladigan malaka oshirish kurslariga kiritilgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga doir maxsus o‘quv darslarida tizim xodimlarini ishtirokini ta‘minlash.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari institutida tashkil etilayotgan maxsus o‘quv kurslarida Xorazm viloyat statistika boshqarmasi va tuman (shahar) statistika bo‘limlari xodimlarini belgilangan grafikka asosan malaka oshirishlari ta‘minlanmoqda. Jumladan, 2022-yil yanvar-mart oylarida jami 23-nafar boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘limi xodimlari o‘quv kurslarini tamomladi, ulardan 4-nafari AKT ga oid kurslarda malaka oshirishdi.</p> <p>Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi tomonidan o‘quv kurslarining yakuni bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyani oldini olish bo‘yicha test sinovlaridan o‘tkazilmoqda.</p>
<p>IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralar, tadqiqotlar o‘tkazish va xalqaro hamkorlik</p>		
18.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yetuk milliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda vazirlik va idoralarda “9 dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni”ga bag‘ishlangan “Ochiq eshiklar kuni”ni o‘tkazish.</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yetuk milliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda vazirlik va idoralarda “9 dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni”ga bag‘ishlangan “Ochiq eshiklar kuni”ni dekabr oyida o‘tkaziladi.</p>
19.	<p>Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IXDT)ning tavsiyalarini bajarish bo‘yicha tasdiqlangan harakatlar rejasida nazarda tutilgan vazifalarni har tomonlama ijrosini ta‘minlash.</p>	<p>“Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalarning to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida so‘ralgan ma‘lumotlar berilishi o‘z vaqtida ta‘minlanadi.</p>
20.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlari, chora-tadbirlar rejalari va sohaga doir boshqa xujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini muhokama va tahlil qilish, kelgusida ushbu sohada tashkiliy-amaliy va huquqiy</p>	<p>2022-yil 03-mart va 29-mart kunlari Xorazm viloyat statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” O‘RQ-419-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston</p>

№	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
	mexanizmlarning samaradorligini oshirish bo'yicha zarur choralarni ko'rish.	Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirilishi bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6013-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 06 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamotchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlar to'g'risida"PF-6257-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 06-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5177-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash borasida boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman (shahar) statistika bo'limlari mas'ul rahbar va xodimlari ishtirokida o'quv-seminar yig'ilishi vebenar qilib o'tkazilgan va amalga oshirilgan ishlarning samaradorligi muhokama qilindi.
21.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat statistika qo'mitasining 2021-yilga mo'ljallangan idoraviy chora-tadbirlar rejasini (dasturini) ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat statistika qo'mitasining 2022-yilga mo'ljallangan idoraviy chora-tadbirlar rejasini asosida Xorazm viloyati statistika boshqarmasining 2022-yilga mo'ljallangan idoraviy chora-tadbirlar rejasini 2022-yil 06-yanvarda ishlab chiqildi va o'rnatilgan tartibda tasdiqlandi.
22.	2021-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat Dasturining Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tizimida ijro etilishi bo'yicha axborotlarni har chorak yakuni bo'yicha Davlat statistika qo'mitasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasiga kiritib borish.	2022-yil yanvar-mart oylarida korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturining Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tizimida ijro etilishi bo'yicha amalga oshirilgan axborotlarni har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 3-sanisigacha Davlat statistika qo'mitasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasiga kiritib borilishi ta'minlandi.

Hisobot tuzuvchi

I.Otajanov